

SURXON VOHASI TOQCHI QAVMI AHOLISIORASIDA XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATI RIVOJLANISHI

Rahmonov Maxammad Habibullo o'g'li

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Muhammad19940208@mail.ru

+99891 582 25 25

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13137244>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxon vohasi toqchi qavmi aholisining xalq amaliy bezak san'ati va boshqalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Avlod, Panjob, Toqchi, po'stak, supra, teri, telpak, poyabzal, kamarchilik, meshlar, tulun, pichoq qin, kosa, ko'za, qozon, chiroqdon, taqir gilam, "dig-diga" gilam, "g'ajiri" gilam, "oq enli" gilam.

THE DEVELOPMENT OF FOLK DECORATIVE ART AMONG THE RESIDENTS OF TAKCHI TRIBE OF SURKHAN OASIS

Abstract. This article provides information about the folk decorative art of the residents of the Surkhan oasis and others.

Key words: Avlod, Punjab, Taqchi, podskat, supra, leather, telpak, shoes, belts, meshes, tulun, knife sheath, bowl, jug, pot, lamp, bare carpet, "dig-diga" carpet, "gajiri" carpet, "white wide" carpet.

РАЗВИТИЕ НАРОДНО-ДЕКОРАТИВНОГО ИСКУССТВА У ЖИТЕЛЕЙ ПЛЕМЕНИ ТАКЧИ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. В данной статье представлены сведения о народно-декоративном искусстве жителей Сурханского оазиса и других.

Ключевые слова: Авлад, Пенджаб, Такчи, подскат, супра, кожа, телпак, обувь, ремни, сетки, тулун, ножны для ножей, миска, кувшин, горшок, лампа, голый ковер, ковер «диг-дига», ковер «гадзири», ковер «белый широкий».

Amaliy san'at xalqimizni yuksak madaniyatga ega ekanligidan dalolat berib, milloddan avvalgi 5-2 ming yilliklarda paydo bo'lib, ajdodlarimiz kundalik turmush tarizi uchun zarur bo'lgan kiyimlar, uy-ruzg'or anjomlarini tayyorlab .unga alohda e'tibor bilan qaraganlar. Ushbu tayyorlangan buyumlar turli sabablar bilan saqlanib qolmaganligi to'fayli faqat XIX asrga oid amaliy san'at buyumlari saqlanib qolgan. O'tgan davrga xos buyumlardan ayrimlari mavjud bo'lib, bular asosan tosh va sopol buyumlar hisoblanib, qo'lda tayyorlangan. Respublikamiz hududidan neolit davriga oid turli shaklga moslashtirib, uchburchak, ilon izi, to'liqinsimon chiziqli bosma, to'liqinsimon va o'yama naqshlar bilan bezatilgan. Taraqqiyotni rivojlangan bosqichi bo'lgan enolit va jez davrida miloddan avvalgi 3 ming yilliklar oxiri 2-ming yilliklar boshlarida dumoloq, cho'zinchoq, sillindir, konus shaklidagi yassi tubli idishlar ya'ni qozonlar, xum, tovoq, piyolalar tayyorlashni o'rganganlar. Kulolchilik sohasida charxni paydo bo'lish natijasida bezak usuli rivojlanib, gulsiz, bosma, chizma, bo'yama usuli naqshlar yuzaga kelib, qora, to'q qizil gulli sopol buyumlar ko'proq ishlab chiqarildi. Amaliy san'atni yangi turlaridan archa, taroqsimon, uchburchak, romb, to'rsimon, tasmali, nuqtali mavzularda kesma chiziqli, ilon izi, bo'yoq dog'lari

kabi usullar rivojlandi. Amaliy san'atni taraqqiy etishi tufayli jez, oltin, kumush taqinchoqlarni asosini tashkil etuvchi bilaguzuk, uzuk, shokila, shakldor munchoqlar, ko'zgu, bezanish buyumlari, naqshli xalqasimon ramziylar, taqinchoqlar asosan chig'anoq, tosh va qimmatbaho toshlardan tayyorlangan. Amaliy san'at buyumlarini qimmatbaholari feruza, lojuvard, aqiq, nefritdan turli shaklli munchoq, to'g'nog'ich, shokila va boshqalardan iborat bo'lgan buyumlar tayyorlangan. Milodan avvalgi VI-IV asrlarda Shimoliy Baqtriya hududlaridan topilgan Amudaryo xazinasida amaliy san'atni nozik durdonasi hisoblangan o'ta nafsi gul va qush ushlagan Anaxita tasviri bo'lgan oval qalqonli tilla uzuklar shakli va nisbatlari talqini yunon-fors san'ati bilan uyg'unlashgan. O'zbekistonda amaliy baliy san'atni gullagan davri milodan avvalgi 3 asr va milolli 3 asrlarga to'g'ri kelib, bu davrda gliptika va tanga tayyorlash ishda ajdodlarimiz hind va rim madaniyati darajasiga yetib, muhr – tangalarda yunon-baqtriya shohlarini tasviri tushirilgan. Ayniqsa, Kushon podsholigi davriga oid milodiy 1- asrga taalluqli zargarlik buyumlari ichida Gerakl tasviri tushirilgan 3 ta silliq nayza, bo'rtma gulli mazmunli sahnalar, ma'budalarda mahalliy etnik qiyofalarni aks etishi, shisha va suyak buyumlarda fil va boshqa buyumlarni yaratilishi amaliy san'timizni yuksak namunmsi hisoblanali. Amaliy san'atimizda metalgi ishlov berish bo'yicha katta tajriba to'planib, oltin, kumush, jezlarga turli yunalishda ishlov berib, kosa, ko'za, qozon, chiroqdond va boshqa idishlar tayyorlanib, ularga hayotiy lavhalar rasmi holatda tasvirlangan. Ushbu tasvirlarda afsonaviy ov, to'y, raqqosalar jangchilar, milliy kurashlar aks ettirilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, amaliy zargarlik san'ati har tomonlama yuksak rivolanib davlatimiz tomonidan moddiy- ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanmoqda. Mustaqillik yillarida amaliy zargarlik san'ati barqaror rivojlanib, "handasiy" shaklli taqinchoqlar, olti qirrali oltin, kumushdan sirg'alar, uzuklar, munchoqlar, shuningdek qimmatbaho toshlardan –la'l, safsar, yoqut, feruza kabi buyumlardan tayyorlanib, xotin-qizlarimizga taqdim etilmoqda. Amaliy san'atimizda to'qimachilik yuksak rivojlanib, mahalliy hunarmandlarimiz ip, ipakdan matolar tayyorlab, zarli pardalar, murrakab gulli rangdor to'qilishli zandonachi nafis matolar tayyorlab, O'zbekistonni amaliy san'atini jahonga nomoyish etmoqdalar. Boysun va Denov tumanlarida qadimiy matolar tiklanib, mahalliy hunarmandlar yul-yul nimshoyi, "olacha", "janda", beqasam, bo'z, boysuncha atlas kabi matolarni tayyorlab bozor rastalarida sotilmoqda. Qadimgi an'analarga tayanib, Boysun, Denov, Uzun, Sherobodda ipak matolaridan "parchalar", "baxmal", "shohi" ro'mollar, ip kalavadan matolarni tayyorlash, ularga bo'yoq berish ishlari yo'lga qo'yildi. Amaliy san'atimiz uchun zarur bo'lgan bo'yoqlarni tayyorlash ishlariga alohida e'tibor berilib, qadimiy a'analar tiklanib katta yutuqlargi erishilmoqda. Shuningdek, amaliy san'atimizning yuksak san'ati hisoblangan bosh kiyimlar, rangdor do'ppilar ham ziynatli qilib tayyorlanib, mustaqillik yillarida ushbu soha bilan shug'ullanuvchi san'at ustalari Boysun do'ppilari, Denov bosh kiyimlari an'analarni qayta tiklab, mahalliy milliy an'analarga xos bosh kiyimlarni yaratib, ularda tabiat ranglari, bayroqlar, milliy etnik an'alar tasviri tushirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bosh kiyimlarda libos kashtachiligi rivojlanib, Surxondaryolik ayollarning bosh kiyim-salla tikishdagi kashtachilik san'ati qadimdan mashhur. Masalan, "Qo'ng'iroq salla" kamalak rangida bo'lib, bu ranglar "xasan-xusan" deb nomlanib, sallaning tepasida "oy quchoq", orqa qismida esa "soch pesh" joylashtiriladi. Ayollar tomonidan kiyilgan bu bosh kiyimda "Oy quchoq" ma'lum ma'noda ayollar uchun xamyon teri kissa vazifasini, "soch pesh" esa sochlarni o'rab turish vazifasini

bajargan. Yosh kelinchaklar uchun tayyorlanadigan “Qo‘ng‘irot salla”lar asosan, to‘q, keksalar va o‘rta yoshdagilar uchun och ranglardan tayyorlangan. Boysunda amaliy san‘atning charmga ishlov berish turi rivojlanib, rangli charmdan kitob muqovalarini bezash, qog‘ozlar uchun jildlar tayyorlash, ot anjomlari, kiyim kechaklarning yangi nusxalari tayyorlanib, tayyorlangan charm badiiy maxsulotlariga chinor tasviri, to‘p barg gullar, afsonaviy qaxramonlar, qushlar, raqslar, etnografiyaga oid urf-odatlar aks ettirilmoqda. Amaliy san‘atimizning yuksak durdonalaridan hisoblangan kashtachilik san‘ati Surxon vohasida mustaqillik yillarida qayta tiklanib, yuksak natijalarga erishmoqda. Mahalliy bozorlarda xalqning talab ehtiyojlari asosida kashtachilik buyumlari tayyorlanib, ular uchun Denov, Boysun, Sherobod, Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Uzun, Sariosiyo tumanlarida bozor rastalarida alohida joylar ajratilgan. Shuningdek kashtalar qo‘l va mashinada yaratilib, ularda quyosh, o‘simliklar, daraxt yaproqlari, sevgi muxabbat ramzi, tabiatning muqaddas ramzlari alohida aks ettirilgan. Ayniqsa kashtachilar tomonidan Surxon vohasi etnografiyasiga xos gullar nafisi, ranglar uyg‘unligi, bezak nusxalari aks ettirilgan bo‘lib, bu bezaklar kashtachilar tomonidan do‘ppi, nimcha, chopon, yostiq jildlari va boshqa buyumlarda o‘z aksini topgan. Surxon vohasiga xos “Oy yuzingga oyna bo‘lay” xalq maqoli asosida chevarlik san‘ati o‘zining latif va go‘zalligi bilan yuksak ma‘naviyatimiz rivojiga xissa qo‘shib, Surxon vohasida qizaloqlar, ayollar, katta yoshdagi keksa momolar uchun kashtachilik alohida-alohida o‘ziga xos matolar tayyorlash bilan, turli rangdor munchoqlardan bezatilgan ipak iplar asosida tikilgan kashta buyumlar bilan ajralib turgan. Masalan, “Taxta jamalak”lar bo‘yi yetguncha, munchoqli jamalaklar esa bo‘yi yetgan qizlarga hamda kelinchaklarga mo‘ljallangan. Jamaalaklar xalqimizning kashtachilik sohasidagi amaliy san‘atining yorqin namunalari hisoblangan. Surxon kashtachi chevarlari tomonidan yaratilayotgan “oyna xalta”, “choy xalta”, “qoshiq xalta” kabi uy-ro‘zg‘or buyumlari xalqimizning orzulari, estetik didlari asosida tayyorlanib, o‘zining yuksak ma‘naviyatini tahlil etmoqda.

Surxon vohasiga “libosimga gul tikdim” amaliy bezak san‘atida liboslar turli andozalarda tayyorlanib, bular ichida hozirgi kunda keng tikilib tayyorlanayotgan ustki kiyimlar sifatida tikilayotgan to‘n teri choponning bir necha turlari, ya‘ni to‘n, chopon, jelak, guppi, po‘stin, chakmon tayyorlash kiyim bichish va tikish yuqori andozalar asosida olib borilmoqda. Ayniqsa amaliy san‘atda ayollarga xos mos qadimiy “janda” matosini tiklaanishi va tayyorlanishi Boysun tumani misolida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, Boysunlik ustalar qadimiy tabiiy bo‘yoqlar tayyorlash uslubidan foydalanib, “janda” matosiga ishlov berishni yangi turlarini yaratmoqda. “Janda” matosini tayyorlashda yong‘oq po‘chog‘idan qora va kulrang bo‘yoqlar, nok, olma, va tok daraxtlaridan och sariq bo‘yoqlar, ro‘yan, anor o‘simlik va daraxtlardan qizil ranlar olinib, matoga ishlov berish rivojlandi. Surxon amaliy bezak san‘atiga xos ayollarning ustki liboslaridan, ayollar choponi, chelagi, chegda, boshqa taashlanadigan kurta, ko‘ylaklar tayyorlash hozirgi kunda mahalliy hunarmandchilikning yuksak san‘atlaridan biri sanaladi. Surxon vohasga xos kashtachilikning maxorati va san‘ati so‘zanalarda o‘z aksini topib, so‘zanani tayyorlashda to‘q, qizil, to‘q sariq, yoki qora sidirg‘a matolarga ipak ipi bilan tikiladigan har xil shakl o‘z ifodasini topmoqda. Kashtachilar so‘zanani tikishda so‘zana markazini aylana teri doira shaklida chizib, qolgan qismi “tarki gul”, “qo‘chqormez gul”, “oygul” kabi naqshlar asosida tayyorlaydilar. Boysun so‘zanalariida naqshlar va o‘simliksimon kashtalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, “lola”, “dasta gul”, “shoh”, “bodomcha” nomlari bilan shuxrat qozonmoqda.

Shuni alohida ta'kidlaash kerakki, amaliy san'atda Surxon vohasiga xos Boysun, Denov, Yurchi, Sherobodga xos ganj va yog'och o'ymakorligi, me'moriy bezaklari yanada rivojlanib, qadimiy an'analar tiklanib, ganj va yog'och o'ymakorligi mahalliy ustalar tomonidan kulolchilik, zargarlik, binokorlik sohalarida o'z aksini topib, maishiy, me'moriy binolarni bezashda o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Badiiy san'atimizning yuksak namunalaridan biri bo'lgan gilamchilik Boysun, Bandixon, Sherobod, Oltinsoy, Denov tumanlarida rivojlanib, gilamlarning qadimiy turlari bo'lgan taqir, kiygiz gilamlar qayta tiklanib, zamonaviy gul berish san'ati asosida qayta tiklandi. Surxon vohasi gilamidagi naqshlar o'zining didi mustahkamligi va tayyorlanish uslubi bilan alohida joziba berib, bugungi kunda taqir gilam, "dig-diga" gilam, "g'ajiri" gilam, "oq enli" gilam, po'stak kabi gilam turlari tayyorlanib, xalqimizning gilamga bo'lgan talab va ehtiyoji qondirilib, gilamlar uchun zarur bo'lgan to'qish, ip tayyorlash, o'rish kabi jarayonlar qayta tiklanib, rivojlanib bormoqda.

REFERENCES

1. Головик. Кустарное промышленность Туркестана // Туркестанский сборник. Т. 512. – С. 31 – 32.
2. Tursunov S. va boshqa. O'zbekiston tarixi va madaniyati- Surxondaryo etnografiyasi. – B. 94.
3. Tursunov S. Boysun Akadem nashr. – B. 101.
4. Qobilov E Surxon vohasi xo'jaligi - Toshkent "Akademiknashr". 2012. 259- bet.
5. Ведомость заводам, мастерским и ремесленным заведением в Самаркандской области за 1888 год// Сборник материалов для статистики Самаркандской области за 1887-1888г. –Самарканд.; 1890. – С. 39.
6. Dala yozuvi Boysun tumani Avlod, Panjob, Sariosiyo va Alachopon qishloqlari 2021-2023 yillar
7. To'Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
8. Рахмонов, М. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 341-344.
9. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
10. Rahmonov, M. (2024). TOQCHI QAVMI AHOLISINING HUNARMANDCHILIGI VA UY-RO 'ZG 'OR KASBKORLIGI. *Modern Science and Research*, 3(5)